

GLOBALLASHUV SHAROITIDA: LINGVISTIK MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR

Umurova Feruza Pirmamat qizi

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti kafedrası

v.b dotsenti, f.f.f.d

Toshpo'latova Dilso'z Muhiddin qizi

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada globallashuv jarayonining lingvistik muhitga ko'rsatgan ta'siri, ayniqsa milliy tillar va madaniy identifikatsiya bilan bog'liq muammolar tahlil etiladi. Til – jamiyat ko'zgusi bo'lganligi bois, globallashuv natijasida yuzaga kelayotgan sotsiomadaniy transformatsiyalar aynan til tizimida o'zining eng sezilarli ifodasini topadi. Maqolada tilning kommunikativ, identifikatsion va madaniy-falsafiy funksiyalari globallashuv kontekstida qayta ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: globallashuv, lingvistik muammo, til siyosati, milliy til, identitet, sotsiolingvistika, raqamli kommunikatsiya, tilshunoslik istiqbollari, til madaniyati.

XXI asr – globallashuv asri. Ushbu jarayon dunyo miqyosida iqtisodiy, siyosiy va madaniy integratsiyaning jadallashuvi bilan bir qatorda, lingvistik makonning ham keskin o'zgarishiga olib kelmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi, ommaviy madaniyatning dominantligi, transmilliy tilning kengayishi milliy tillarning mavqeiga bevosita ta'sir o'tkazmoqda. Bunday sharoitda lingvistik muhitda yuzaga kelayotgan muammolarni aniqlash va ularning istiqbollarini belgilash dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi.

Globallashuv jarayonining tilga ta'siri ko'p yo'nalishli va murakkabdir. Tilshunos olimlar bu jarayonni ikki yo'nalishda ko'rib chiqadilar: gomogenizatsiya (bixillashuv) dunyo miqyosida kuchli tillarning dominantligi natijasida boshqa tillar o'z mavqeini yo'qotmoqda. UNESCO ma'lumotlariga ko'ra, har ikki haftada dunyoda bitta til yo'qolmoqda; geterogenizatsiya (turli-tillilikni saqlash): Globallashuv sharoitida o'z milliy tilini saqlash va rivojlantirish uchun millatlar til siyosatini faol olib bormoqda.

Dunyo miqyosida kuchli tillar, ayniqsa ingliz tilining dominantligi natijasida ko'plab mahalliy va mintaqaviy tillar o'z mavqeyini yo'qotmoqda. Bu jarayon tilning global kommunikatsiyadagi roli bilan bog'liq bo'lib, ko'plab davlatlarda ingliz tili ta'lim, fan, texnologiya va ommaviy axborot vositalarida asosiy aloqa vositasiga aylanmoqda.

Natijada, mahalliy tillarning rasmiy sohalardagi qo'llanish darajasi kamaymoqda, yangi avlodlar esa o'z ona tillarini chuqur o'rganishdan chekinmoqda.[1]

UNESCO ma'lumotlariga ko'ra, har ikki haftada dunyoda bitta til yo'qolmoqda, bu esa til xilma-xilligiga jiddiy tahdid solmoqda[2]. Shu sababli tilshunoslar ushbu holatni til o'limi yoki til yo'qolishi [3]

Biroq globallashuv faqat bir xillashuvga emas, balki turli-tillilikni saqlashga ham zamin yaratmoqda. Ko'plab millatlar va davlatlar o'z milliy tillarini asrash, rivojlantirish va uni yangi sharoitlarga moslashtirish uchun faol til siyosatini yuritmoqda. Masalan, ba'zi davlatlarda ona tili maktab ta'limida majburiy dars sifatida joriy etilgan, tilni raqamli platformalarda rivojlantirish bo'yicha dasturlar ishlab chiqilmoqda. Shuningdek, globallashuv sharoitida "madaniy identitet" masalasi dolzarb bo'lib, milliy til shu identitetning ajralmas qismiga aylanmoqda. Bu esa jamiyatlarda o'z tili va madaniyatiga nisbatan qiziqishning ortishiga olib kelmoqda.

Til – nafaqat kommunikatsiya vositasi, balki milliy o'zlikning, tarixiy xotiraning va madaniy merosning asosiy ko'zgusidir. Globallashuv sharoitida ko'plab milliy tillar, xususan, kichik va o'rta tillar kommunikatsion maydonni boy berib, yoshlar orasida chet tillar foydasiga siqilib chiqmoqda. Bu esa identitet inqirozi, tilga nisbatan loqaydlik va madaniy begonalashuvni keltirib chiqarmoqda.

Milliy til har bir xalqning madaniy merosi, tarixiy xotirasi va ijtimoiy birdamligining asosi hisoblanadi. Shu bois, til faqat aloqa vositasi bo'libgina qolmay, balki milliy identitet – ya'ni millatning o'zligini anglash va ifodalash mezonini sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Ammo globallashuv, migratsiya, urbanizatsiya va zamonaviy kommunikatsiya vositalarining rivojlanishi natijasida ko'plab millatlar o'z tillarining mavqeini saqlab qolish va shu orqali milliy identitetini yo'qotmaslik masalasi bilan yuzma-yuz kelmoqda.

Milliy til bir millatning o'zini boshqa millatlardan ajratib turuvchi asosiy belgidir. Til orqali tarixiy tajriba, qadriyatlar, urf-odatlar va dunyoqarash avloddan-avlodga uzatiladi. Shu sababli, tilning yo'qolishi nafaqat aloqa vositasining, balki butun boshli madaniyat tizimining yo'qolishiga olib keladi. J.A. Fishman ta'kidlaganidek, tilni saqlash – bu millatni saqlashdir. Agar bir millat o'z tilida fikrlashni, so'zlashni, o'qishni to'xtatsa, u asta-sekin o'z madaniy xotirasidan ajraladi va boshqa kuchli madaniy tizim ichida assimilyatsiyaga uchrashi mumkin.

Hozirgi globallashuv davrida ingliz, rus, frantsuz, ispan kabi "global tillar"ning keng tarqalishi natijasida ko'plab kichik milliy tillar ijtimoiy-iqtisodiy hayotda chekinmoqda. Yoshlar o'z ona tilini emas, balki xalqaro tillarni o'rganishga ko'proq intilmoqda, bu esa milliy tilning ijtimoiy funksiyasini pasaytiradi. Ba'zi hollarda, davlat til siyosatining

yeterli darajada samarali olib borilmasligi ham til va identitet orasidagi bog'liqlikning zaiflashuviga olib keladi [4]

Milliy tilni saqlash uchun davlat darajasida kompleks til siyosati olib borilishi zarur. Bu quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

Ona tilining ta'lim tizimida yetakchi o'rinni egallashi;

Milliy OAV va raqamli platformalarda tilning faol qo'llanilishi;

Adabiyot, san'at, teatr va ommaviy madaniyatda ona tilining kuchli ifodasi;

Diasporalar uchun tilni saqlab qolish dasturlarini ishlab chiqish.

Masalan, O'zbekistonda o'zbek tilining davlat tili sifatidagi maqomini mustahkamlash, uni xalqaro maydonga olib chiqish va ilmiy-texnik sohalarda ham faol qo'llash borasida qator choralar ko'rilmogda. Biroq bu borada yanada tizimli va strategik yondashuvlar zarurligi tilshunos olimlar tomonidan ko'p bor ta'kidlanmogda.

O'zbekiston til siyosatida mustaqillik yillaridan beri o'zbek tilining davlat tili sifatidagi maqomini mustahkamlash borasida muhim qadamlar qo'yilgan. Biroq mening nazarimda quyidagi muammolar mavjud: til va texnologiya uyg'unligi pastligi (raqamli kontent, dasturiy ta'minot, sun'iy intellektda o'zbek tilining kamligi); yoshlar orasida rus va ingliz tilining ustunligi, ayniqsa ta'lim va ish bozorida; o'zbek tilidagi ilmiy, texnik va zamonaviy atamalar bazasining zaifligi; til madaniyatiga oid ijtimoiy loqaydlik.

Globallashuv jarayoni barcha milliy tillar singari o'zbek tilining ham turli sohalardagi mavqeyiga bevosita ta'sir ko'rsatmogda. Bu jarayon ijobiy imkoniyatlar bilan bir qatorda, qator muammolarni ham keltirib chiqarmogda. Jumladan, o'zbek tilining raqobatbardoshligini saqlab qolish, ilm-fan va texnologiyalar tiliga aylantirish, yosh avlod orasida unga bo'lgan ehtiyoj va qiziqishni oshirish globallashuv davrida dolzarb masalalardan biriga aylanmogda. Globallashuv natijasida ingliz, rus va boshqa tillarning keng tarqalishi O'zbekiston jamiyatida til aralashuvi (interferensiya) hodisasini kuchaytirmogda. Ayniqsa, yoshlar nutqida chet tildagi so'zlardan (jumladan, inglizcha: like, ok, sorry, weekend, ruscha: da, nu, vot) ko'p foydalanilishi kuzatilmogda.[5] Bu holat o'zbek tilining sofligiga tahdid soladi va uning normativ mezonlariga putur yetkazishi mumkin.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining rivojlanishi natijasida til faqatgina og'zaki yoki yozma shaklda emas, balki raqamli platformalarda ham faol qo'llanilishi zarur. Ammo o'zbek tilining internet, dasturlash, sun'iy intellekt, ilmiy texnologiyalar sohaslarida yetarli darajada rivojlanmaganligi uni globallashuv davrida chekinishga majbur qilmogda. Masalan, aksariyat raqamli dasturlar va interfeyslar hali ham ingliz yoki rus tilida mavjud, o'zbekcha versiyalar esa kam va funksional emas. Bu esa foydalanuvchilarni chet tillarga o'tishga undaydi.

O'zbek tilining globallashuv sharoitida rivojlanishi uchun zarur bo'lgan istiqbollarni belgilash va takliflar ishlab chiqish – bu nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy, siyosiy va madaniy muammo hisoblanadi. Milliy tilning zamonaviy talablar darajasida yashashi va raqobatbardosh bo'lishi uni rivojlantirishga bo'lgan tizimli yondashuvni talab qiladi. Quyida bu boradagi asosiy istiqbollar va amaliy takliflar keltirib o'tamiz: O'zbek tilini internet, sun'iy intellekt, mobil ilovalar va dasturlash muhitiga faol joriy etish orqali uni raqamli asr tiliga aylantirish mumkin. Buning uchun

O'zbek tilida AI modellar (sun'iy intellekt dasturlari) va nutqni tanish tizimlarini ishlab chiqish.

O'zbekcha klaviatura, avtomatik tarjima va matn tuzatish tizimlarini takomillashtirish.

O'zbek tilida Wikipedia maqolalari sonini oshirish, raqamli lug'atlar va onlayn ensiklopediyalarni yaratish.

O'zbek tilining zamonaviy fan, texnologiya va innovatsiyalar tili sifatida rivojlanishi milliy o'zlik va mustaqil tafakkurni mustahkamlovchi omildir.

Ilmiy ishlar, darslik va o'quv qo'llanmalarni o'zbek tilida tayyorlash va chop etishni rag'batlantirish.

O'zbek tilida maqolalar chop etadigan ilmiy jurnallar sonini ko'paytirish.

Ilmiy atamalarni izchil standartlashtirish va lug'atlar tuzish.

Yoshlar o'z ona tiliga nisbatan ijobiy hissiy va funksional munosabatga ega bo'lsalar, u tilning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

TikTok, YouTube, Instagram kabi platformalarda sifatli va zamonaviy o'zbekcha kontent yaratgan blogerlarni qo'llab-quvvatlash.

Ona tili bayramlari, til viktorinalari, tanlovlar, drama to'garaklari orqali tilga qiziqishni oshirish.

Maktablarda o'zbek tili darslarining interaktiv, texnologik vositalar orqali o'qitilishini joriy etish.

Globallashuv natijasida xorijda yashayotgan millionlab o'zbeklar ona tilidan uzoqlashmoqda. Ularga tilni o'rganish imkonini berish – milliy birlikni saqlab qolish vositasi.

Xorijdagi o'zbek maktablari va madaniyat markazlarida o'zbek tili kurslarini tashkil qilish.

Onlayn darsliklar, videodarslar, til o'rganish ilovalari ishlab chiqish.

Diaspora vakillariga mo'ljallangan o'zbek tilidagi OAV va ijtimoiy tarmoqlarni rivojlantirish.

O'zbek tilini rivojlantirish uchun mavjud qonunlar, farmon va qarorlarning amaliy ijrosi doimiy monitoring qilib borilishi kerak.

Har yili “O‘zbek tili ” doirasida sektorlar kesimida maxsus davlat dasturlarini ishlab chiqish.

Davlat muassasalarida o‘zbek tilidan foydalanish darajasi yuzasidan ochiq reytinglar e‘lon qilish.

OAV, ta‘lim, madaniyat va texnologiyalar sohalarida davlat tili siyosatini nazorat qiluvchi alohida muassasa faoliyatini kuchaytirish.

Globallashuv – xavf emas, imkoniyat. Agar o‘zbek tili zamonaviy dunyo talablariga mos shaklda rivojlantirilsa, u nafaqat saqlanadi, balki global tillar qatoridan ham joy olishi mumkin. Buning uchun davlat siyosati, jamoatchilik tashabbuslari va texnologik rivojlanish uyg‘un holda olib borilishi lozim. Globallashuv jarayoni nafaqat iqtisodiy va siyosiy sohalarda, balki til maydonida ham keskin raqobatni yuzaga keltirmoqda. Bu sharoitda milliy tillar, xususan o‘zbek tili oldida dolzarb vazifalar turibdi. Lingvistik muammolarni chuqur anglash, strategik yondashuv asosida istiqbollarni belgilash va amaliy mexanizmlarni ishlab chiqish — nafaqat tilshunoslarning, balki jamiyatning har bir a‘zosi zimmasidagi muqaddas burch bo‘lishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Phillipson, R. (1992). Linguistic Imperialism. Oxford University Press
2. UNESCO (2022). Atlas of the World’s Languages in Danger. <http://www.unesco.org>
3. Crystal, D. (2000). Language Death. Cambridge University Press.
4. Qodirov, S. (2019). “Oliy ta‘limda o‘zbek tilining mavqeyi: muammo va imkoniyatlar”. O‘zbekiston tilshunosligi jurnali, №4.
5. Soliyev, B. (2021). “Zamonaviy yoshlar nutqida til aralashuvi: sabablar va oqibatlar”. Filologiya masalalari jurnali, №2.
6. Nurmonov A. (2020). Globallashuv sharoitida til siyosati va o‘zbek tili. Toshkent: Fan nashriyoti.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–5850-son Farmoni (2019): “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini oshirish to‘g‘risida”.
8. Crystal, D. (2004). Language and the Internet. Cambridge University Press.
9. Fishman, J.A. (1991). Reversing Language Shift. Multilingual Matters.
10. UNESCO (2022). World Languages in the Digital Age. <https://unesco.org>